



**ZAMONAVIY O‘ZBEK ADABIYOTIDA OTA TIMSOLI
(ULUG‘BEK HAMDAMNING “OTA” ROMANIDAGI PO‘LAT OTA OBRAZI)**

Ro‘ziyeva Dilyayra Nurmurodovna-

Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi,

Ichki ishlar vazirligi Buxoro akademik litseyi

“Tillarni o‘rganish” kafedrası ingliz tili fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada atoqli yozuvchi Ulug‘bek Hamdamning “Ota” romanidagi Po‘lat ota obrazi haqida fikr yuritiladi. Dastavval, folklor namunalari hisoblangan “Alpomish” va “Kuntug‘mish” dostonida hamda O‘zbek xalq maqollarida ota timsoli keltirilgan parchalar tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: Ota, Alpomish, Kuntug‘mish, maqol, or-nomus, Po‘lat ota, Yog‘du, Sevinch.

Аннотация: В данной статье рассматривается образ Полата Ота в романе “Ота” известного писателя Улугбека Хамдама. Сначала анализируются фрагменты эпосов “Алпомиш” и “Кунтугъмиш” и узбекские народные пословицы, которые считаются образцами фольклора, а также образы отца.

Ключевые слова: Отец, Алпомиш, Кунтугъмиш, пословица, честь, Полат Ота, Ёгъду, Радость.

Abstract: This article discusses the image of Polat Ota in the novel "Ota" by the famous writer Ulugbek Hamdam. First, the fragments of the epics “Alpomish” and “Kuntug'mish” and Uzbek folk proverbs, which are considered examples of folklore, as well as the images of the father, are analyzed.



Key words: Father, Alpomish, Kuntug'mish, proverb, honor, Polat Ota, Yog'du, Joy.

Ota va bola munosabatlari – bu oila ichidagi eng muhim va ta'sirchan aloqalardan biridir. Bu munosabatlar farzandning shaxsiyatini shakllantirishda, uning ijtimoiy, emotsional va ruhiy rivojlanishida katta rol o'ynaydi. Ota va bola o'rtasidagi yaxshi munosabatlar farzandning o'zini hurmat qilishiga, ijtimoiy moslashuviga va baxtli hayot kechirishiga yordam beradi.

Ota. Bu so'zni eshitganda har bir inson ko'z o'ngida farzandi uchun jonini berishga tayyor inson jonlanadi. O'zbek tilining “5 tomli izohli lug'at” ida ota so'ziga quyidagicha ta'rif beriladi: “Ota” farzandli, bola-chaqali er kishi. (o'z bolalariga nisbatan). Misol: Ota bo'lmay, ota qadri bilmas.

Darhaqiqat, ota nasihati o'laroq farzand kamolotga yetishadi, ulug' martabalarni egallaydi. Otasi undan rozi bo'lgan farzand esa ikki dunyo saodatiga erishadi. Zero “Ota rozi - Xudo rozi”. So'z san'ati yaralibdiki, yozuvchilar, shoirlar, adiblar bu mavzuga qayta-qayta murojaat qilib kelishmoqda. Xalq og'zaki ijodi namunalari hisoblangan dostonlar, maqollarda ham ota timsoli keng mushohadada yoritilgan.

Birgina “Alpomish” dostonini olib qaraydigan bo'lsak Qultoy boboning Alpomishga ota-onangni hurmat qil, ota-onani norozi qilgan bolaning sira yo'li bo'lmaydi, deb qilgan nasihati xalqimizning milliy o'zligini ko'rsatib turuvchi ota-onani hurmat qilishni eng yuqori o'ringa qo'yadi.

Eshit boboning so'zini,
Qultoy chol deydi o'zini.
Sog'-salomat olib kelgin,
Boysaribiyning qizini.
Lekin yo'lingga termultirma,
Ota-enangning ko'zini.



Ergash Jumanbulbul tilidan yozib olingan “Kuntug‘mish” dostonida ham ota obrazi turli xil tushunchalarni o‘zida jamlab kelgan. Doston tarkibidan olingan parcha orqali ota terminiga misol keltiramiz: Otim Kuntug‘mish , otamning oti Avliyoyi Qoraxon..... shunda No‘g‘ayday elimni, ota-enamni, xalq qarindoshimni tashlab, shahringga Xolbekani izlab keldim.Ota haqida xalq og‘zaki ijodining go‘zal namunasi bo‘lmish maqollar ham talaygina. O‘zbek xalq maqollarida boshqa manbalarga qaraganda ota shaxsining mo‘tabarligi, azizligi, qadr-qimmatini masalalari aniq-ravshan va tushunarli tasvirlangan. Jumladan,

“Onangni quyosh bilsang , otangni oy bil”.

Ushbu maqolda onangni quyosh deb bilsang, otangni oy deb bil, chunki oy va quyoshsiz hayotimizni tasavvur qilib bo‘lmaganidek, ota-onasiz ham hayotimiz mazmunsizdir.

“ Otang o‘tirgan uyning tomiga chiqma”.

Bu maqolda otaning hurmatini joyiga qo‘yish haqida gap ketmoqda.

“Ota-aql, ona-idrok.”

“Ota-bilak, ona- yurak.”

“Onalik uyning ori bor,otalik uyning-zari”

Darhaqiqat, qadim zamonlardan xalqimiz ota siymosini muqaddas bilib , e‘zozlab kelishgan.

Ota obrazi jahon adabiyotida ham alohida o‘rin tutadi. Jahon adabiyotida bu mavzuda yaratilgan asarlarga misol qilib, Turgenevning “Otalar va bolalar”,Onore de Balzakning “Gorio ota”, Fridrix Shillerning “Qaroqchilar” kabi asarlarni keltirishimiz mumkin.

Otaning roli farzandning rivojlanishida juda muhim ahamiyatga ega. Ota nafaqat oila boshlig‘i, balki farzandining psixologik, ijtimoiy va emosional rivojlanishini qo‘llab-quvvatlovchi, unga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadigan shaxsdir. Ota va bola o‘rtasidagi mustahkam, ishonchli va samimiy munosabatlar, farzandning sog‘lom va baxtli shaxs bo‘lib o‘sishiga



yordam beradi. Ota bolaga o'zini hurmat qilish, ijtimoiy qadriyatlarni o'rgatish va hayotdagi muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritishda mustahkam poydevor yaratadi.

O'zbek adabiyotida ham o'z asarlarida ota obrazini yaratgan ijodkorlar talaygina. Jumladan, Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar", Pirimqul Qodirovning "Otamdan qolgan dalalar", Tog'ay Murodning "Yulduzlar mangu yonadi", Shukur Xolmirzayevning "O'zbek bobo", Muxtor Xudoyqulovning "Otam haqida hikoyalar", Isajon Sultonning "Qismat", Omon Muxtorning "Oppoq qor", Fayzulla Salayevning "Uzro" asarlarini misol qilib keltirishimiz mumkin. Ammo aynan "ota" timsoli keng mushohadada yoritilgan, ya'ni bosh siymo darajasiga olib chiqilgan asarlar nihoyatda kam, lekin bor. Shunday asarlardan biri atoqli yozuvchimiz Ulug'bek Hamdamning "Ota" romanidir. Bu romanda haqiqiy o'zbek otasi siymosiga duch kelasiz. Yozuvchi o'zi yozganidek bu asar "chin otalarga bag'ishlanadi". Asar muallifi bu voqeani yoshligida o'zi yashaydigan viloyatda, ya'ni Andijonda bo'lib o'tganini, eshitganlarini ancha yillar "xayolida pishitib", keyin qog'ozga tushirib roman qilganini aytadi. Romanni mutolaa qilar ekansiz, undagi voqealar ko'z oldingizda birma-bir namoyon bo'lib boraveradi. Asar "o'ziga xon, ko'lankasi maydon" Oychechak opaning o'n besh yildan beri tirnoqqa zor o'g'li Po'lat va husnda tengsiz kelini Yog'duning farzandsizligidan boshlanadi. Ularning farzand istab bormagan joyi, ko'rinmagan shifokori qolmaydi. Axiyri bir kun, o'n besh yil deganda Po'lat va Yog'duning "ko'hna g'amlar qafasini parchalab", qichqirib chaqaloq dunyoga keladi!.. Qiz!!!!.

"Po'lat va Yog'duning quvonchi nafaqat yuraklarga, balki olamlarga sig'masdi! Shunaqasi ham bo'larkanda-a?!.. Bo'larkan-ey!!!!. Bunaqasini faqat ertaklarda o'qirdik, axir! Uyog'ini so'rasangiz yoki o'zingiz yaxshilab kuzatsangiz, hayotning o'zida shunaqa voqea – hodisalar yuz beradiki, ertaklar ularning oldida bor-yog'i arziyas cho'pchaklarga aylanadi-qoladi." Nihoyat, bu xonadonda uzoq kutilgan chaqaloq tug'iladi va oila a'zolarining qalbiga o'zi mitti bo'lsa-da, bir olam quvonch olib kiradi. Yozuvchi qahramonlarga ism tanlashda turkonalikka alohida e'tibor qaratadi. Romanda bosh



obrazlardan tortib, epizodik obrazlargacha turkona ism tanlangan. Qarang: “Chaqaloqqa Sevinch deb ot qo‘yishdi! Chunki sevinchli edi ular! Ming yillik g‘ussa bor edi O‘tkir akaning oilasida. Shu uchun sevinaylik, sevinchlarga yetaylik deb sevinchlanishdi. Qolaversa, bu oilada o‘g‘il-qizlarga turkona ot qo‘yishardi. “Shundog‘am bir tomonimiz arabiyu boshqa tomonimiz forsiy otlarga to‘lib ketgan. Hatto ular juda-juda ko‘p. O‘rtada muvozanatni saqlash uchun, otlarimiz aytilganda, qaysi millatga tegishli ekanimiz bilinib tursin. Yo‘q, men boshqa millatlar ismlarini qo‘yishga qarshi emasman. Faqat me‘yor bo‘lsin, deyman”.

Bu parchada yozuvchi O‘tkir aka tilidan bugungi kundagi farzandlarga ism qo‘yishdagi og‘riqli nuqtalarimizga tegib o‘tganday go‘yo. Hozirda ota-onalar farzandlariga ism tanlashda “yevropalashish” an‘anasiga amal qilishmoqda. Yoqtirgan futbolchisi, ashulachisi yoki kino aktyorining ismlarini hech ikkilanmasdan qo‘yishmoqda. Ism qo‘yish Alloh taoloning otalar zimmasiga yuklagan eng asosiy vazifalardan biridir. Farzandiga to‘g‘ri ism tanlash ota oldida turgan mas‘uliyatli burchdir. Farzandga chiroyli ism qo‘yish kerakligi saxix hadislarda ham kelgan. Abu Dardo roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: “Rasullulloh sollallohu alayhi vasallam dedilar: “Albatta , qiyomat kuni o‘z ismlaringiz va otalaringizning ismi ila chaqirilursiz. Bas, ismlaringizni go‘zal qiling”. Abu Dovud , Ibn Hibbon, Tobaroniy va Bayhaqiy rivoyat qilishgan. Ismning chiroyli bo‘lishi qiyomat kuni ham kerak bo‘lar ekan. Chunki barcha xaloyiq yig‘ilgan joyda birovning ismi aytib chaqirilganda ismi go‘zal bo‘lsa, xursand bo‘lishi, aksincha bo‘lsa , xijolat bo‘lishi tabiiy. Asarda Po‘lat ota obrazi g‘ururli, oriyatli, vatani, oilasi, farzandi uchun jonini berishga tayyor inson sifatida gavdalangan. Urush boshlangandan so‘ng Po‘lat, endigina yigirma ikkiga to‘lgan navqiron arslon bitta o‘g‘il bo‘lishiga qaramay, rayon harbiy bo‘limiga o‘zi borib, “meni qachon urushga yuborasizlar, axir yoshim yetgan bo‘lsa?” deb qayta-qayta borib, uyerdagilarni holi-joniga qo‘ymay urushga ketishi uning haqiqiy o‘zbek o‘g‘loni ekanini ko‘rsatadi.



Po‘lat tush ko‘rdi. Daxshatli bir tush. Tushida u qizi Sevinch bilan baland bir devorning usti da yikilib ketay-yiqilib ketay deb yurib ketayot ganmish. Pastda devorning ikki tarafida esa, gurillab do‘zaxiy bir olov yonayotganmish. Sevinch otasining qo‘lidan mahkam tutib olgancha oldinda, ota bo‘lsa, kizining ko‘lchasini qizidan ham kat tikrok sikimlab olgancha orkada odimlab borayotgan mish. Otaning har nafasida qizchasining devordan qulab pastda lovullab yonib turgan omonsiz olov qa‘riga tushib ketmasaydi, degan tashvish yashar mish. Dam-badam ular devorning o‘pirilgan joyla riga - jarliklarga duch kelishar, bu joylarning ostidan olovning ko‘kka o‘rlagan tillari ularga xamla qilar, ota bilan kiz yuraklarini xovuchlab jarliklardan sakrab amallab o‘tib olisharu keyin xovuchdagi yuraklarini tishlariga olib, maxkam tiidagan ko‘yi plov izidek yolg‘izoyok yo‘llarida davom etisharmish. Ammo jarliklarning biriga kelganda Sevinchning oyog‘i yomon toyib, olovning tubanda gurillab yonayotgan otashning domiga uchib ketishiga sal kolibdi. Po‘lat uning qo‘lchalaridan jonholatda ushlab yuqoriga tortib, jonini qutka ribdi. «O‘zingga shukr!...» otaning butun bada nidan muzdek ter chikib ketibdi. Sal esu hushini to‘plab olgach esa, Sevinchning qo‘llaridan yanada qattikrok tutib olgancha yurishda davom etibdi..... Go‘yo butun olam ulkan bir gulxanning ichida yonar mishu yolg‘izgina shu devor ustida jon saqlash mum kin emish. Ammo uning usti ham xuddi muqaddas kitobda tasvirlangan kil ko‘prik sirotdagidek o‘ta tor, o‘ta tahlikali bo‘lib, unda bir odim otish xam ota bilan qizni har lahzada hayotu mamot ora-lig‘iga otib yuborarmish...

Po‘lat cho‘chib, hansirab uyg‘ondi.

- Tinchlikmi?... Tushmi?.. Xozir suv olib ke laman, qo‘zg‘aldi Yog‘du xavotirlanib.

O‘tib ketdi, o‘tib ketdi... Yotaver! - javob ber di xotining yelkasidan tutib to‘xtatarkan Po‘lat.

So‘ng o‘zi ham boshini qaytib yostiqqa tashladi. Bir muddat chuqur-chuqur nafas olib yotdi. O‘ylay-o‘y-lay, axiyri o‘ziga o‘zi dedi: «tush menga nimadir demoqchi, nimadir... Axir, men tug‘ilganimdan beri bir ota bo‘lib yolg‘iz qizimni dunyoni borliq balo-



ka zolaridan zo‘r berib ko‘rishga harakat qilib kela man. Devorni usti meni butun imkonimu, atrof olovlar ichida qolib, xamma narsani o‘z domiga tortib yamlab yutayotgan ajdaho shu dunyo bo‘lsa, ne tong!... dunyo, xa-xa, mana

Oyning o‘n beshi Korong‘i bo‘lsa, o‘n beshi yorug‘ deyishadi. Balki bu o‘n besh kunlik zulmatga duchor bo‘lgan insonlarning yorug‘ orzularidan, istagu exti yo‘jlaridan tug‘ilgan hikmatdir. Odamlar qismatla rini kuzatsangiz esa, har doim ham bu go‘zal so‘z larga mos tushavermaydi. Goxi zulmat, gohida esa ziyoning hissasi ko‘proq bo‘ladi ularda.

Po‘lat o‘zi o‘t o‘chiruvchi bo‘lishiga qaramay, qizi Sevinchning bir yuzi kuyib, chandiq bo‘lib qolganidan rosa siqiladi. Uning Sevinchning yuzi kuygandan keying ichki iztiroblari shunday tasvirlanadi: “Qachondir bu ariqda oqib yotgan suv to‘xtashi mumkin edi, ammo Po‘latning iztirobli o‘ylarining poyoni yo‘qqa o‘xshardi”. Chunki bu yerda shajara masalasi bor edi. Uyga qo‘shilib esa, yuraklar yondi, qismatlar yondi.

Kimsan nomi el ichida doston bo‘lgan Otajon polvon avlodining Sevinchga kelib to‘xtab qolishini o‘ylab ezilardi. Romanda otalar farzandini qanchalik yaxshi ko‘rsa ham lekin or-nomus masalasi ular uchun birinchi o‘rinda ekanligini Po‘lat ota qizi Sevinchning tug‘ruqxonada benikoh farzand dunyoga keltirayotganini eshitgan vaqtidagi monologida ko‘rishimiz mumkin:

“—Axir men otaman, ota! Bu dunyo otalar qo‘lida edi-ku yoki men tufayli chiqib ketdimi? Yo‘q, yo‘q, bunga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Aslo! Kerak paytda otalar qatiq turmas ekan, dunyo ham o‘z o‘rnida turmaydi: buziladi- ketadi. Mana, men—seni ko‘p yaxshi ko‘rib yubordim. Yuzing kuyik, yuraging kuymasin dedim, erkaladim, papaladim. Xo‘sh, nima bo‘ldi keyin? Ko‘chadan bola orttirding! Haromi deyishadi axir bunday bolani, haromi!.. Yo Alloh, qanday qilib yo‘l qo‘yding bunga? Endi qanday chidayman? Meni nevaram haromi bo‘lib keladimi uyimga?!.. Yo‘q, also mumkin emas!.. Bugun men bunga xo‘p desam, ertaga yana boshqa birov qiladi bu ishni! Endi keyingisiga yo‘l qo‘ymayman! Odamlar xayolida “Shunday qilib bola tug‘ish mumkin ekan” degan o‘yni tag-tomiri bilan



sugʻurib tashlash uchun ota qilishi kerak boʻlgan ishni qilaman!.. Sevinch, shu choqqacha otang mehrini koʻrib kelding, endi qahrini ham koʻr!.. Shunga meni majbur qilganing uchun laʼnat boʻlsin senga, laʼnat boʻlsin bunday qismatga!..”

Poʻlat ota shunday oʻylar taʼsirida tugʻruqxonaga borib, bir lahza boʻlsa-da, oʻylab oʻtirmay farzandkush degan nomni oladi va qilgan ishidan hech ham afsuslanmaydi. Bu fojidan xabar topgan odamlar ikkiga boʻlinishib, bir taraf “Otamisan ota ekan oʻziyam, chin musulmon deganlari mana shunaqa boʻladi, or-nomusli erkak ham, haqiqiy inson ham” deb otaning qilgan ishini toʻgʻri desa, Sevinchning tarafdorlari esa “Bolasi boʻlsagina dunyo koʻngliga kiradi ayolning, tilla boʻyniga yarashadi . Boʻlmasa, bari bekor. Ming marta bekor, million marta bekor!...” deya uni oqlashardi. Poʻlat ota qamoqqa kirdi, xotini Yogʻdu va jigargoʻshasi, Sevinchi esa qabristonga .

Tutqunlar oqsoqolning nima sababdan qamoqqa tushganini bilgan kundan boshlab unga «ota» deya murojaat kilish di. Umumiy tartib-intizomga boʻysunishdan tashqari hollarda otaga izzat-ikrom koʻrsatishib, uni ogʻir ishga yoʻlatishmadi. «Ozodlikda sizdek otalar boʻlar ekan, qizlarimiz yomon yoʻlga kirib ketmaydi, mabo-do kirishsa, jazo muqarrar ekanligini bilishadi. Raxmat sizga, ota!» deyishib, qoʻlini sovuq suvga urdirishmadi mahbuslar. Bitta ish uchun naryoqda soʻkishgan boʻlsa, bu yoqda boshlariga koʻtarib alqash-di. Vaholanki, uning laʼnat va maqtovga loyiq topilgan qilmishi bitta edi u oʻz qizini oʻldir gan edi!.. Boshqa payt bunday munosabatga xayron qolishi tayin boʻlgan ota bu gal gap-soʻzlarga parvo qilmadi. Zero, uning tanasigina tutqunlar bilan birga kezar, fikru xayoli esa, hayot deb atalgan bu bemaza oʻyinning tezroq tugashiga qadalgan edi.

Ota yetti yil qamoqda oʻtirgan boʻlsa-da, bir zum boʻlsin qilgan ishidan afsuslanmasdi. Roman oxirida Poʻlat ota Imom domlaning gapini hamda qizi Sevinchning otasining yuziga oyoq qoʻymaganini, yaʼni Fakil ogʻa bilan nikohi borligini eshitganidan keying holati quyidagicha tasvirlangan, bu xuddi otaning umri soʻnggidagi iqrornomasi edi:



“Ey Yaratgan Egam! Menga bergan hayotingning ham xuddi qizim Sevinchniki kabi ikki yuzi bor ekan: bittasi g‘oyat go‘zal, sevimli bo‘lsa, ikkinchisi esa, yana o‘sha qizimning olovda kuyib, badbashara holga kelgan, shu tufayli sevimsiz, hatto qo‘rqinchli bo‘lib qolgan yuzidek kishini o‘zidan itarar, uni dahshatga solar ekan. Lekin u mening o‘z qizim, ona qizim, Pushti kamarimdan bo‘lgan yakka-yu yagonam, dilbandim edi! Shunday bo‘lgach, men uning o‘sha xunuk, o‘sha qo‘rqinchli yuzini ham chiroyli yuzi kabi yaxshi ko‘raveraman. Menga qizimning ikki beti birdek aziz, birdek qadrli. Endi menga qismatimning ikki beti ham, xuddi qizimniki kabi birdek qadrdon: chiroylisi ham, xunugi ham! Men uni shunday ko‘rdim, shunday bildim, shunday qabul qildim, mana, so‘nggi manzil tomon ham shuni his qilib boryapman. Endi, hozirgi tajribam bilan, ikki qo‘limni ko‘ksimga qo‘ygan, ta‘zim qilgan ko‘yi aytamanki, qismatim aynan shunday bo‘lgani uchun ham Sendan mingdan ming roziman! Meni kechir, bilib-bilmay, tushunib-tushunmay qilgan isyonlarimu gunohlarimni avfu et, Allohim!”

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Besh jildli, 3-jild.--- Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008.
2. ”Alpomish”--- o‘zbek xalq dostoni, T.:Fan, 2018.
3. Jumanbulbul, o‘g‘li Ergash. Bulbul taronalari: Kuntug‘mish.// Nashrga tayyorlovchi. Xodi Zarif.---Toshkent:Fan, 1972.
4. Ulug‘bek Hamdam, “Ota”. “Yangi asr avlodi”, 2020.